

## Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1</sup>

2026- yil yanvar-fevral


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini Shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026- yil yanvar-fevral oylarida, dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **5 843,7** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025- yil mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,3** % ni tashkil etib, uning hajmi esa **1 186,7** mlrd so'mga o'sishi qayd etildi.

*Ma'lumot uchun: 2025-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar hajmi 4 657,0 mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa 109,3 % ni tashkil etgan.*

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan (**2 312,3** ming so'm) 2026- yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **537,2** ming so'mga yoki **115,2** % ga o'sib, **2 849,5** ming so'mni tashkil etgan.

2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 168,9** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **71,3** % ini, jumladan, **43,0** % ini kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

<sup>1</sup> 2025- yil yanvar-fevral oylari hajmi va 2026- yil yanvar-fevral oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.



## II. Xizmatlar sohasini shahar va tumanlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari  
2026- yil yanvar-fevral

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
<b>Xorazm viloyati.<sup>2</sup></b>	<b>5 843,7</b>	<b>100,0</b>	<b>117,3</b>
Urganch shahar	1449,9	24,8	121,9
Xiva shahar	323,3	5,5	120,4
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	185,9	3,2	115,1
Gurlan	173,9	3,0	116,8
Qo'shko'pir	176,6	3,0	116,5
Urganch	274,2	4,7	114,9
Hazorasp	259,6	4,4	113,2
Tuproqqal'a	80,5	1,4	117,4
Xonqa	235,2	4,0	116,8
Xiva	172,1	2,9	117,3
Shovot	173,9	3,0	116,5
Yangiariq	158,5	2,7	115,5
Yangibozor	128,3	2,2	118,8

### Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

Urganch shahrining yuqori ulushi (**24,8 %**) uning poytaxt maqomi bilan izohlanadi, u Xorazm viloyatining eng yirik shahridir. Viloyatimizda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Urganch rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

## III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-martdagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

<sup>2</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar **23,6** % ga (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hisyasi **3,5** bandni tashkil etdi), transport xizmatlari **17,2** % ga (o'sishiga hisyasi **3,5** band), yashash va ovqatlanish xizmatlari **13,9**% ga (o'sishiga hisyasi **4,2** band), savdo xizmatlari **24,3** % ga (o'sishiga hisyasi **3,2** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **13,3** % ga (o'sishiga qo'shgan hisyasi **0,6** band) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **12,3** % ga (o'sishiga hisyasi **0,2** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar-fevral)

	Hajmi, mlrd so'm		O'sish sur'ati, %
	2025- y.	2026- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>4 657,0</b>	<b>5 843,7</b>	<b>117,3</b>
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	212,4	267,3	113,3
moliyaviy xizmatlar	668,8	849,3	123,6
transport xizmatlari	909,6	1175,0	117,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	737,3	928,0	114,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	1389,7	1720,1	113,9
savdo xizmatlari	591,7	766,5	124,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	81,9	94,7	112,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	148,3	191,9	128,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	100,6	121,3	113,9
ijara xizmatlari	49,1	56,2	106,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	146,4	172,5	112,5
shaxsiy xizmatlar	122,5	146,4	109,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	41,8	46,4	103,4
boshqa xizmatlar	194,2	236,1	112,5


**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026- yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **29,4** %, transport xizmatlari **20,1** %, moliyaviy xizmatlar **14,5** %, savdo xizmatlari **13,1** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,6** %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,3** % ulushini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **29,8** %, transport xizmatlari **19,5** %, moliyaviy xizmatlar **14,4** %, savdo xizmatlari **12,7** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,6** %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,2** % ulushni tashkil etgan.


**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi**  
2026- yil yanvar-fevral %



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **kompyuter dasturlashtirish xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2026- yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **20,9 %** ni tashkil etdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan esa **56,3 %** ga o'sgan.

2026- yilning yanvar-fevral oylarida **moliyaviy xizmatlar** tarkibidagi **sug'urta xizmatlarida** o'sish kuzatildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan hajmi **12,5 mlrd so'mga** yoki **98,9 %** tashkil qildi.

**Sug'urta xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi**





2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida **transport** sohasida, **omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari (118,1 %)**, **pochta va kuryerlik (101,9 %)** xizmatlarida yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. Havo transporti xizmatlarining o'sishiga xalqaro va ichki turizmning rivojlanishi, parvozlar sonining ortishi, shuningdek, ko'plab mamlakatlar uchun vizasiz rejimning joriy etilishi ta'sir ko'rsatdi. Elektron tijoratning rivojlanishi (OZON, Wildberries, AliExpress, mahalliy bozorlarda onlayn xaridlarning ko'payishi), Express24, MyTaxi Delivery, Yandex Go, Uzum Tezkor va boshqa xususiy tashkilotlarning paydo bo'lishi, logistika infratuzilmasining takomillashtirilgani pochta va kuryerlik xizmatlariga bo'lgan talabni oshishiga turtki bo'ldi. Aeroportlarni modernizatsiya qilish imkoniyatini oshirish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga imkon beradi, bu esa o'z navbatida omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Viloyatda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **98,4 %** ni tashkil etdi. 2026- yilning yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **114,0 %** ni tashkil etdi.

#### **IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar**

##### **Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:**

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanayotgan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekt bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lovga yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda



sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

## **V. Foydali havolalar**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

---

**Chiqarish uchun javobgar:**  
Xizmatlar va savdo sohasi  
statistikasi bo'limi'

**Manzil:** 100170, Urganch,  
Al-Xorazmiy ko'chasi, 93-uy  
**Pochta:** info@xorazmstat.uz  
**Tel.:** 9090

